

## HARBIY TERMINOLOGIYANI TARJIMA QILISHNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Musurmanova Shaxnoza**

Chirchiq Oliy tank qo‘mondon muhandislik bilim yurti,

Tillar kafedrası katta o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

**ABSTRACT** *This article describes lexical and cultural features of translation military terms. Semantic and lexical features of the term, the scientific views of the scientific is reflected in the using of the words. terminological dictionary , which defines the scientific approaches such as determination of the terminological meaning of the words.*

**KEY WORDS:** *Terminology , concept, principle, scientific, terminological, approach, determination, meaning of the words.*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada harbiy soha terminlarini tarjima qilishning lingvokulturologik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Termin tushunchasi, olimlarning ilmiy qarashlari, so‘zning ishlatilishi o‘z ifodasini topgan. Terminologik lug‘at, so‘zning terminologik ma‘nosi determinlashish kabi ilmiy yondashuvlar o‘z aksini topgan*

**KALIT SO‘ZLAR:** *terminologiya, tushuncha, tamoyil, ilmiy, terminologik, yondashuv, matonat so‘zlarning ma‘nosi.*

Harbiy terminlarning britaniya va amerika variantlaridagi farq qiluvchi va o‘xshash jihatlarini o‘rganganilganda ingliz va amerikalik harbiylarni solishtirma o‘rganish hamda terminologiyada har birida o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘rnini inobatga olish zarur. Ikkita madaniy hudud va ikki terminologik korpus haqida to‘liq

lugʻat yoʻq va hozirgi Britaniya va Amerika harbiy terminologiyasi uchun bunday lugʻat tuzish mumkin emas. Agar odatiy harbiy shartlar boʻlsa, iboralar, jumladan, harbiy jargonda, muhokamaga kirishish bilanoq oʻzaro tarjima qilinadi.<sup>18</sup> Harbiy bilim yurtida taʼlim berish jarayonida harbiy tyerminologiyalar va qisqartmalar vaqti kelganda uch tilda koʻrib chiqiladi (harbiy terminlar koʻpchiligi rus tilida berilgan). Bundan tashqari harbiy talabalarga oʻz sohasiga oid terminlarni amerika va britaniya variantlaridagi farqlari va oʻxshash tomonlari ham oʻrgatib oʻtiladi.

Ammo harbiy unvonlar, lavozimlar shuningdek turli harbiy tuzilmalar va turli odatlar oʻz oʻzidan Britaniya va Amerika harbiy terminologiyalarida farqlar borligini koʻrsatadi. Bunda Britaniya Qirollik armiyasi tizimini Amerika armiyasi bilan solishtirish mumkin emas. Eʼtiborni faqat harbiy terminlari, qisqartmalari va jargonlariga qaratish lozim. Oʻzbek tiliga tarjima qilganda ingliz tilining har ikkala, britaniya va amerika variantlari harbiy terminologiyasini oʻrganib chiqish lozim. Misol uchun tarjima qilish kerak boʻlgan matn ingliz tilining qaysi variantiga tarjima qilinishi kerak, yoki qaysi davlat armiyasi yohud harbiy xizmatchilari haqida ekanligini eʼtiborga olish kerak. Va albatta terminlar tarjimasining lingvokulturologik xususiyatlariga ahamiyat qaratish joizdir.

Harbiy talaba harbiy sohasi qanday boʻlishidan qatʼiy nazar umumiy harbiy terminlarni bilishi talab etiladi. Shuni taʼkidlash lozimki, terminlarni bilish faqat alohida olingan terminlarni emas, balki birikmada, gapda va kontekstda qoʻllangan terminlarni bilish, nutqida qoʻllay olishni nazarda tutadi. Terminlarni birikmasiz va kontekstsiz oʻrganish ayrim hollarda chalkashliklarga olib keladi.

Chunki lugʻatlarda harbiy terminlarning eng umumlashgan maʼnosi beriladi xolos.

---

<sup>18</sup>Иванов, А.О. Без эквивалентная лексика; перевод, язык, культура: учеб.пособие / Иванов А.О.-СПб.: филол.фак. С.-Петербург. гос. ун-та, 2006.- С.86.

**1-Jadval****Britaniya va Amerika variantlaridagi bir xil shaklli ammo turli ma'noni bildiruvchi, turlicha tarjima qilinuvchi terminlar**

t/r	Britaniya variantidagi ma'nosi	So'z	Amerika variantidagi ma'nosi
1.	Bo'linma, vzvod	Section	seksiya, yarim vzvod
2.	Saf, harbiy tartib, birlashma	Formation	Saf, harbiy tartib
3.	Vzvod, yarim batareya	Troop	Rota, eskadron
4.	Eskadron	Squadron	Divizion, batalyon
5.	Batalyon shtabi boshlig'i	Adjutant	Shaxsiy tarkib bo'linmasi boshlig'i
6.	Yengil artilleriya	Field artillery	Dala artilleriyasi
7.	Avia qanot	Wing	Qanot
8.	Armour	Zirh	Armor
9.	Defence	Mudofaa	Defense
10.	Manoeur	Manyovr	Maneuver
11.	Chauffeur	Pilot	Sky winder
12.	Sparks	Radio operator	Static bender

Lingvomadaniy rakursda ingliz tilidagi harbiy sohaga oid tushuncha va so'zlarning o'zbek tiliga tarjimasi masalasi hozirgacha chuqur o'rganilmaganligi hamda bu borada amalga oshirilgan amaliy ishlar barmoq bilan sanarli bo'lganini hisobga olib, harbiy sohaga oid tushuncha va so'zlar lingvomadaniy komponentli leksika sifatida ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimaning dolzarb masalasi sifatida tahlilga tortilishi lozim.

Ingliz harbiy adabiyotiga mansub asarlarda uchraydigan harbiy so'z va shu sohaga oid tushunchalar tapjimasida muqobillik darajasini belgilashdan avval, ularni guruhga ajratish hamda tarjima tili lug'atlaridagi muqobillari bilan qiyosiy-lingvomadaniy tahlil o'tkazish hamda ushbu taqqoslash natijalariga tayangan holda nazariy va amaliy xulosalar qilish samarali usul deb hisoblanadi.

Quyida biz ingliz tili britaniya va amerika variantlariga mansub harbiy sohaga oid terminlarning o'zbek tiliga tarjima qilishda kuzatiladigan ayrim diskursiv holatlarni izohlab berishga harakat qilamiz.

**1) *“Privates don't have an inferiority complex” They're just inferior.***

Piyodalarda to'la qiymatga ega bo'lmaganlik kompleksi nima qiladi? Ularda qiymatning o'zi yo'q-ku? Amerika variantiga mansub bu gapning ruscha tarjimasi tushunarliroq ma'noni ifoda qiladi. Chunki ularda “комплекс неполноценности” degan tushuncha, baho, holat bor. O'zbek tilida esa bu termin, tushunchasining yo'qligi ingliz tilidagi *“inferiority complex”*ni to'g'ri tushunish imkonini bermaydi. Bu esa qandaydir jamoada ayrim shaxslarda nimaningdir yetishmasligi orqasida biroz diskomfort sezishi holati haqida gap boradi. Masalan, o'qish, ish yoki xizmatdagi guruh, brigada, vzvod, sex yoki ofisda kimning oyog'i cho'loq, yo qo'li qiyshiq yoki g'ilay, yohud bir ko'zi ko'r, juda pakana shu kabi layoqati cheklangan bo'lsa, mana shu kamchiligi bor odam o'zini har qanday holatda kamchiligini sezgan holda o'ng'aysizroq sezadi, garchand shu odamlar bilan yillar davomida ishlab kelgan bo'lsa-da.

Misolga kelsak, bu o'rinda oddiy askarda “kamchiliksizlik kompleksi “ mavjud emas, chunki ularning borlig'ining o'zi kamchilik deb baho berilyapti. Bu narsa armiya xizmatida oddiy askarlarning xizmati qanchalik mehnati og'ir bo'lsa-da qadri pastligi haqida boradi.

**2. *This time the seargant wasn't just jumping on me. Do I need a shave?* -**

Bu safar serjant basabab tarxashlik qilmadi. Men haqiqatdan ham soqolimni qirdirishim kerak ekanmi?

Britaniya variantiga tegishli bu misolda „*wasn't jumping on*” idiomasi o'zining lug'aviy ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda ishlatilib, “xarxasha qilmoq, tanbeh bermoq” ma'nosida ishlatilmoqda. Aslo serjant menga sakradi” deb tushunmaymiz. Garchi o'zbek tili og'zaki so'zlashuv nutqida bu hol kuzatilsa ham.

Masalan: Sen menga bunaqa sakrayver-ma! J-aa g'ashimga tegsang, o'rningga qo'yib qo'yish qo'limdan keladi. Bu misolda yuqoridagi,"xarxasha qilmoq pretyenziya qilmoq, baho bermoq, kattachilik qilmoq ma'nolari mavjud"

**3. *But he will be easy to identify and catch if he ever goes over the hill.***

Lekin agar u xizmatdan qochmoqchi bo'lsa biz uning alohida belgilariga qarab juda tez qo'lga olamiz.

Amerika variantiga mansub bu misolda xizmatdan qochmoqlik birikmasi *"to go on the hill"* to'g'ri birikmasi orqali berilganki, harbiy qismning tepalik yoki adirlik ustida joylashgan deb ham bo'lmaydi. Shunchaki *"to go over the hill"* turg'un birikmasi "harbiy xizmatdan qochmoq" deb tarjima qilinishi kerak. Gapdagi alohida belgilari haqida gapirilganda esa askarning g'ilay, oqsoq, burni qiyshiq buning ustiga shalpanquloq, bukri bo'lsa" degan tasvirga asoslangan. Armiyaga chaqirilgan odamning yuqoridagi belgilariga qaramasdan uni askarlikka ro'yxatga olgan ofitserdan nega bunaqa jismoniy kamchiliklari bor odamni armiyaga olding? deb so'rashganda yuqoridagi javobni bergan ekan.

Navbatdagi misol Amerika harbiy diskursidan olingan.

**4. *Sergeant Bounot was fond of telling his soldiers about his dreams." I went to bed last night and dreamed I died" "And the heat woke you up? a bored listener inquired***

Siz olovning issig'idan uyg'onib ketdingizmi?

Britaniya varianti harbiy diskursidan olingan bu kontekstda serjant Bounotning o'zining askarlariga ko'rgan tushlari haqida gapirib beraverib rosa zeriktirganligi haqida gap boradi. Bu safar tarki odat, amri mahol deganidek, serjant "Kecha uyquga ketibman-da darhol tushimda o'libman" deb. Shunda bunaqa hikoyalar joniga tekkanligidan zerikib turgan holda, bu dunyoda gunoh qilganlarni jahannam o'tida kuydirishlarini eslagan holda yuqoridagi "Issiqdan uyg'onib ketibsizda?" degan gapni aytgan. Agar gapning tarjimasiga bu izoh berilmasa kitobxon gap qanaqa olov ekanligini bilmas va hukmning mazmunini tushunib yetmasdi.

Navbatdagi misol Amerika harbiy diskursidan olingan.

**XULOSA.** Bugungi kungacha qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar terminologiyasi turli jihatlari tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, terminlarni lingvokulturalogik jihatdan o‘rgangan tadqiqotlar ozchilikni tashkil qiladi. Tadqiqotda harbiy terminlarning ingliz tili Britaniya va Amerika variantlariga xos (integral) va xos bo‘lmagan (differensial) xususiyatlari, leksik-semantik sathi chog‘ishtirma aspektda o‘rganilib, har ikki variantning lingvokulturologik xususiyatlari va o‘zbek tiliga tarjima qilishda tutgan fundamental o‘rni aniqlandi

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Grinev-Grinevich, S.V. Terminology: textbook, manual for students of higher study institutions/ Academy, 2008 - 304p.
2. Nelyubin J1.J1. Introduction to translation technique (cognitive theoretical and pragmatic aspect): textbook, allowance 3<sup>rd</sup> edition. Nauka 2013 -216 p.
3. Sti'elkovski, G.M. Theory and practice of military translation. German language / Moskow: Military publishing, 1979.-272p.
4. Ходжиматова Г.М. Научные основы обучения терминологической лексике русского языка в неязыковом вузе. – Душанбе, 2011.
5. Bovyor R. Harbiy terminlar lug‘ati. Uchinchi nashr / 2004 – 262 b.
6. Inglizcha-ruscha avtomobil zirxli lug‘ati. Moskva 1961
7. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)
8. <https://www.yumpu.com>
9. <http://mv-vatanparvar.uz/7556/>